AN’ANAVIY IJROCHILIK DARSLARINI TASHKILIY TUZILISHI

Dadayev To’ychiboy, Xakimov Toxir
Respublika musiqa va san’at kolleji

Tahlil darsida musiqa savodi, musiqa tinglash, qo`shiq kuylash jarayonlarida o`tilgan asarlarni mukkammal tahlil qilishga e`tibor qaratiladi, bunda o`quvchilarni nazariy savodxonlik malakalari muhim rol o`ynaydi.

O`yin darslari juda xilma – xil shakllarda o`tkazilishi mumkin. Masalan, musiqiy cholg`ular mavzusini o`tganda o`quvchilarga turli xildagi musiqa cholg`u asboblari surati solingan kartochkalar beriladi. O`qituvchi magnitafon yordamida biror bir milliy cholg`u asbobida ijro etilgan musiqani eshittiradi. Oquvchilar o`z navbatida musiqiy asar qanday cholg`u asbobida ijro etilganligini qo`llaridagi kartochkalar orqali ko`rsatadilar. Eng faol qatnashgan va topqir o`quvchilar baholanadilar va rag`batlantiriladilar. Viktorina, konsert, bahs – munozara, kuyni top kabi darslar o`quvchilarning nazariy va amaliy o`zlashtirgan bilimlariga asoslangan holda o`tkaziladi. Dars – sayohat esa ijodiy jamoalarga, turli madaniy – ma`rifiy tadbirlarga yoki bo`lmasa video tasma yordamida tabiat qo`yniga, shaharlarga musiqiy sayohat tarzida uyushtiriladi.

An’anaviy ijrochilik darslarini tashkiliy tuzilishi va shakllariga ko`ra yana keng qo`llaniladigan quyidagi turlarini ham ko`rsatib o`tish mumkin:

Tashkiliy darslar;

Aralash darslar;

Dominantali (darsdagi biron bir faoliyat turi qo`shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodxonligi, musiqiy ijodkorlik boshqalaridan ustunroq bo`ladi) darslar;

Kontrol – tekshiruvchi darslar;

Umumlashgan darslar;

Intervyu darslar;

Himoya darslari;

Yakunlovchi darslar.

Bu darslarning har biri o’z tuzilishi, vazifasi, maqsadi va metodik asoslariga egadir. Boshlang’ich sinflarda musiqa darslarini o’yin tarzida (qo’shiqlarni, o’yin orqali, tashkil etish, musiqaga raqsga tushish “chigil yozdi o’yin”lari) olib borilganda o’quvchilarning faolligi oshadi va ular berilgan topshiriqlarni nisbatan oson bajaradilar. Manashu aytib o’tilganlarning o’ziga ham musiqa darslarini o’z tabiatiga ko’ra yangi – yangi o’ziga xos va zamonaviy interfaol usullardan foydalanishida keng imkoniyatlariga ega ekanligini ko’rsatadi va yana bir -bor o’rinda musiqa o’qituvchisining zukkoligi, mahorat, tajribasi va qanday texnologiyalardan, qanday faoliyat mavzularini o’tishda, pedagogik shart –sharoit va o’quvchilarning qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlashi va qo’llashi hal qiluvchi yahamiyat kasb etadi.

Masalan, konsert darslarini o’quvchilarda sahna madaniyatini shakllanishiga, o`zlarini ko`pchilik oldida ko`rsatish, yaxshi imkoniyatlarini namoyish etish, o`zini artistlardek tutish xislatlarini o`sishiga, viktorina darslari o`quvchilarda topqirlik, izlanuvchanlik, tez fikrlash, eslab qolish qobilyat va ko`nikmalarini rivojlanishiga, bahs – munozara darslari ham o`quvchilarni mustaqil fikrlash, hozirjavoblik, mavzu va masalalarga ijobiy yondoshish,nutqlarini teranlashib borishiga ijobiy ta`sir etadi.

Quvnoqlar va zukkolar darsida o`quvchilar o`zlarining topqirlik, zukkolik, xushyorlik, maqsad sari intilish kabi sifatlarini namoyish etadilar.